SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“BUXGALTERIYA HISOBI” KAFEDRASI

“BUXGALTERIYA HISOBINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TASHKIL ETISH MASALALARI”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI TO’PLAMI

(2023 YIL 2-NOYABR)

SAMARQAND – 2023

UO ʻK: 657:006
B 97
KBK: 65.052+30.10

Buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tashkil etish masalalari *// Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (I-qism). 2023 yil 02-nayabr. Samarqand, SamISI, 2023. 232 – bet.*

i.f.d., professor S.N.Tashnazarovning umumiy taxriri ostida

Nashr uchun mas'ullar:
1. **D.X.Aslanova- i.f.f.d., professor**
2. **S.N.Tashnazarov – i.f.d., professor**
3. **D.J.Pashaxadjayeva – PhD, dosent**

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi: G.Djumayeva – Assistent
Sahifalovchi: G. Djumayeva, F.Nurniyozov

An'anaviy ilmiy-amaliy konferensiya materiallarida yangi O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (MHXS) jadal joriy qilish va tashkil etish, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida korxonalarda aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, daromadlar va xarajatlarni tan olish va baholash hamda moliyaviy hisobotda aks ettirish, auditni xalqaro standartlar asosida tashkil etish va o'tkazishning tashkiliy dastaklari hamda metodologik masalalari, xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyotini rivojlantirish hamda iqtisodiy tahlil, moliya, sug'urta, soliqqa tortish, investitsiya va bank sohalarini xalqaro standartlar asosida tashkil etish va rivojlantirish masalalari yoritilgan. To'plamda MHXSlariga o'tish borasida erishilgan natijalar tahlil qilinib, biznes sub'ektlarida, jumladan tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va boshqa korxonalarda xalqaro standartlarni muvoffaqiyatli joriy qilish bo'yicha xulosa va takliflar keltirilgan. MHXSlarini joriy qilish bo'yicha metodologik tartiblar hamda MHXS asosida moliyaviy hisobot formatlari, hisob siyosati, schyotlar rejasining tuzish borasidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Maqolalar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar ma'suldir. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to'g'ri kelmasligi mumkin

ISBN: 978-9910-752-07-0

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2023.
© "STEP-SEL" MChJ. Nashriyoti, 2023.

Djumayeva G.A.	MHXS asosida ijarani tan olish	63
Эралиев А.К.	Балиқчилик кластерларида харажатлар ҳисоби	65
Ne'matova D. A.	Buxgalteriya hisobida ijaraga olingan asosiy vositalarning o'ziga xos xususiyati	68
Рахманова Ю. Ш.	Халқаро стандартлар асосида инвестициявий кўчмас мулк кийматини ошиши ва тан олиш коидалари	73
Sayfiyev S.S.	Meva-sabzavotchilik klasterlarida segmentlar hisob va hisoboti va uni takomillashtirish	76
Shamsikulova M.F. Axmedov U. S.	Финансовой отчетности на основе международных стандартов финансовой отчетности	79
Юсупова Ф.З.	Корхона даромадларининг иқтисодий мазмуни, таснифланиши	83
Рафеев Д.Р.	Корхоналар хисоб сиёсати: тузиш зарурати, талаблари ва вазифалари	86
Misirov A.	Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda eksport-import operatsiyalari bo'yicha hisoblashuv muomalalari hisobini tashkil etishning me'yoriy xuquqiy asoslari	89
Рафеев Д.Р.	Ҳисоб сиёсати: таркибий тузилиши	93
Ахмеджанов А.	Бухгалтерский учет основа повышения достоверности отчетной информации в кластерах	96
Тўраев А.Н., Мисиров Х.М.	Темир йўл корхоналарида мажбуриятлар ҳисобини халқаро стандартлар асосида ташкил этишнинг ўзига ҳос жиҳатлари	100
Мисиров Х.М.	Темир йўл корхоналарида активлар ҳисобини халқаро стандартлар асосида ташкил этишнинг ўзига хос жиҳатлари	103
Музрапова Ш.С.	Инвестицион мулкни ҳисобга олишнинг ташкилий-услубий жиҳатлари	109
А.Мисиров	Классификация расчетных операций внешнеэкономической деятельности	113
Eshonqulov A. Q.	Korxonalarda pul mablag'lari hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish usullari	115

professional mulohazaga tayanish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. B.M. Орлова, Роль и значение международных стандартов финансовой отчетности в гармонизации системы бухгалтерского учета / B.M. Орлова // Налоги (газета) - 2008. №38.

2. I.N. Ismanov. Buxgalteriya hisobi tizimining moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga transformatsiyasining zaruriyati. Iqtisod va moliya, 2017 yil, 3-son 41-bet.

3. A.A.Karimov, A.K.Ibragimov, N.K.Rizayev, N.M. Imamova – Buxgalteriya hisobi: xalqaro moliyaviy hisobot standartlari / Darslik – T.: «MOLIYA», 2020 – 310 b.

4. Я.В. Соколов, Профессиональное суждение бухгалтера: итоги минувшего века / Я.В. Соколов // Бухгалтерский учет. - 2001. - № 12

5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2022 yil 10 noyabrdagi 61-sonli buyrug‘i. O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun tan olingan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnlari.

Djumayeva Guzal Axtamovna
Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti,
assistent
guzal_axtamovna@mail.ru

MHXS ASOSIDA IJARANI TAN OLISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonalarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishda MHXS asosida tuzilgan buxgalteriya hisobotlarda ijara munosabatlari muhim ahamiyat kasb etishi, xalqaro standartlar asosida ijara tushunchasi, uning tan olinishining bosqichlari yoritildi.

Kalit so’zlar. MHXS, BHMS, ijara, aktiv, ijara komponentlari, ijara ob’yektlari.

Аннотация. В данной статье освещено значение арендных отношений в бухгалтерской отчетности, составленной на основе МСФО, в повышении инвестиционной привлекательности предприятий, понятие аренды, основанное на международных стандартах, а также этапы ее признания.

Ключевые слова. МСФО, НСБУ, аренда, актив, компоненты аренды, объекты аренды.

Abstract. This article highlights the importance of lease relations in financial statements prepared on the basis of IFRS in increasing the investment attractiveness of enterprises, the concept of lease based on international standards, as well as the stages of its recognition.

Keywords. IFRS, national accounting standards, lease, asset, lease components, lease objects.

Respublikamizda buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritishning xalqaro standartlarga asosan olib borilishi avvalo korxonalarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, investorlarga haqqoniy, ob'yektiv ma'lumotlarni taqdim etishni talab etadi. Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (BHXS) hamda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) talablari asosida shakllantiriladi. MHXS talablari asosida hisobotni tayyorlashda korxonalar ikki usulda (BHMS va MHXS asosida) hisob yuritadi yoki moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilish orqali shakllantiradi. BHMS asosida shakllantirilgan hisobot ma'lumotlarining transformatsiya qilinishi ko'pgina hisob axborotlarining noaniqliklariga olib keladi.

Ushbu maqolada asosiy e'tibor ijara tushunchasi, uning tan olinishi munosabatlariga qaratiladi.

16-son "Ijara" MHXSga ko'ra "Ijara-bu tovon evaziga muayyan davr mobaynida aktiv(tayanch aktiv) dan foydalanish huquqi beriladigan shartnoma yoki shartnomaning bir qismi" ekanligiko'rsatilgan. Tashkilot mazkur standartni barcha ijara shartnomalariga, shu jumladan ikkilamchi ijara doirasida foydalanish huquqidagi aktivlarning ijara shartnomalariga nisbatan qo'llashi lozim.

Demak, ijara shartnomasida ijara sub'yektlari ijaraga beruvchi va ijaraga oluvchi; ijara ob'yekti aktivlari (ko'char, ko'chmas mulk, tayanch aktivlar), ijara shartnomasining muddati va eng asosiysi ijara uchun to'lanadigan haq(to'lov) aniq identifikatsiyalanishi lozim. 16-son MHXSga asosan shartnoma ijara komponentiga egaligini quyidagi bosqichlar asosida aniqlashtirish lozim bo'ladi:

1-jadval[24]

Ijara komponentlarini tan olish bosqichlari	**Ijara shartnomasi hisoblanadi**	**Ijara shartnomasi hisoblanmaydi**
Identifikatsiyalangan aktiv mavjudmi?	Ha	Yo'q
Xaridor foydalanish muddati davomida aktivdan foydalanishdan amaldagi barcha iqtisodiy naflarni olish huquqiga egami?	Ha	Yo'q
Foydalanish muddati davomida aktivdan qay tarzda va qanday maqsadda foydalanishni kim belgilaydi?	Xaridor	Yetkazib beruvchi
Xaridor foydalanish muddati davomida aktivni ekspluatatsiya qilish huquqiga egami?	Ha	
Xaridor aktivni foydalanish muddati davomida aktivdan qay tarzda va qanday maqsadda foydalanishini oldindan belgilaydigan tarzda loyihalashtirganmi?	Ha	Yo'q

1-jadval. **Ijara komponentlarini tan olish bosqichlari**

[24] Tadqiqotchi ishlanmasi

1-bosqich. Aktiv identifikatsiyalanganmi? Agar javob “Yo‘q” bo‘lsa, ko‘rsatilayotgan xizmat ijara hisoblanmaydi va jarayon shu yerda yakunlanadi. Aksincha, javob “Ha” bo‘lsa, keyingi bosqichga o‘tiladi.

Aktivning identifikatsiyalanganligi uning shartnomada ijara ob’yekti sifatida barcha belgi, o‘lcham va boshqa jihatlari bilan ko‘rsatilgan bo‘lishi lozimligini anglatadi.

2-bosqich. Ob’yektdan foydalanish muddati mobaynida xaridor deyarli barcha iqtisodiy naflarni olishga haqlimi? Xaridor aktivdan foydalanish muddati mobaynida mutlaq foydalanish huquqiga ega. Agar javob “Yo‘q” bo‘lsa, ko‘rsatilayotgan xizmat ijara hisoblanmaydi va jarayon shu yerda yakunlanadi. Aksincha, javob “Ha” bo‘lsa, keyingi bosqichga o‘tiladi.

3-bosqich. Ob’yektdan qaysi maqsadda foydalanishni belgilash huquqi kimda? Foydalanish muddati mobaynida xaridor ushbu aktivdan qay tarzda va qanday maqsadda foydalanishni mustaqil hal qiladi. Bu savolga javob yetkazib beruvchi bo‘lsa, bitim ijara hisoblanmaydi. Agar javob xaridor bo‘lsa, bitim ijara hisoblanadi va jarayon shu yerda to‘xtatiladi. Agar javob “noma’lum” bo‘lsa, keyingi bosqichga o‘tiladi.

4-bosqich. Ob’yektdan foydalanish tartibini xizmat ko‘rsatuvchi belgilashga haqli bo‘lmagani holda xaridor o‘zi belgilashga haqlimi? Agar javob “Ha” bo‘lsa, ko‘rsatilayotgan xizmat ijara hisoblanadi va jarayon shu yerda yakunlanadi. Aksincha, javob “Yo‘q” bo‘lsa, keyingi bosqichga o‘tiladi.

5-bosqich. Ob’yektni butun foydalanish mobaynida muayyan maqsadda foydalanish uchun dastlab dizayn va qayta loyihalash ishlari xaridor tomonidan amalga oshirilganmi? Agar javob “Yo‘q” bo‘lsa, ko‘rsatilayotgan xizmat ijara hisoblanmaydi va jarayon shu yerda yakunlanadi. Aksincha, javobingiz “Ha” bo‘lsa, bitim ijara hisoblanadi va jarayon shu yerda yakunlanadi.

Demak, ijarani tan olish bosqichlari asosida hisobini yuritish ularning iqtisodiy mohiyatini yaqqolroq ko’rsatib beradi. Ijara munosabatlarini MHXS talablariga muvofiq hisobga olayotganda nafaqat ijara shartnomasi shakliga, balki uning mazmuni va iqtisodiy mohiyatiga e’tibor qaratish lozim bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 16-son «Ijara» Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti
2. 6-sonli BHMS «Ijara hisobi»
3. https://lex.uz/docs/6312360

А.К.Эралиев
СамИСИ ассистенти

БАЛИҚЧИЛИК КЛАСТЕРЛАРИДА ХАРАЖАТЛАР ҲИСОБИ

Аннотация: Тадқиқотда балиқчилик корхоналарида балиқ маҳсулотларини даромадга олиш, сотиш каналлари бўйича реализация қилиш ва молиявий натижаларни аниқлаш бўйича бўладиган хўжалик